

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
FILOLOGIYA

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

M.A.Jo'rayeva	
Safarnomaning paydo bo'lishi va janr sifatida shakllanishi	5
S.A.Xaqnazarova	
Abdulla Sher lirikasida formal an'analar	8
S.A.Odilova	
Badiiy asarda ikkinchi darajali personajlar talqini	12
B.N.Isakova	
O'tkir Hoshimov va Jek London ijodida mavzular ko'lami qiyosiy tahlili	15
Sh.R.Maxamadjonova	
Adabiyotda aforizm tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari	19
M.S.A'zamjonova	
Kitobxon kodi: badiiy asarda psixologizm	22
G.Xaydarova	
"Ona lochin vidosi" romanida kolliziya konflikt	26
М.Б.Ботирова	
XX asr o'zbek adabiyotida psixologik taxlilning o'ziga xos xususiyatlari	28
A.Baba	
Comparison of eastern and western variants of the <i>Koroglu</i> epic	31

TILSHUNOSLIK

I.M.Azimov	
Qayum ramazon va uning "O'zbek tilining birlashgan imlo qoidalari" risolasi xususida	37
M.F.Yo'ldasheva	
Jek London asarlari tarjimalarining lingvopragmatik tadqiqi	43
U.T.Muratbaeva	
Lexical and semantic features of the expression of ethical concepts in the karakalpak language	50
S.B.Hafizov	
The semantic network of "head" in english and uzbek based on lexical field comparison	54
R.T.O'rinboyeva	
Qo'shrabot tumani shevasining fonetik xususiyatlari	59
A.B.Vosiljonov	
Farg'ona viloyati shevalari bazasini yaratishning umumiy nazariy asoslari	63
M.V.Ahmadova	
Syllable rhythm and prosody: the theory of classification of languages by rhythm and the manifestation of isochrony in the poetic system	68
M.N.Najmiddinova	
Linguopragmatic analysis of phraseological units and idioms relating to the concept of hospitality in english and uzbek	73
N.A.Beknazarova, M.Y.Madiyeva	
The definition and key components of communicative competence in language learning	85
X.A.Sarimsokov	
Sport sharhlarini asosini tashkil qiluvchi leksik birliklarning diaxron tadqiqi	88
S.A.Raxmonberdiyeva	
Qurilish sohasiga oid ingliz va o'zbek tillaridagi leksik birliklarning lingvistik tahlili	93
X.A.Asqaraliyeva	
Media-kommunikativ muloqotda paralingvistik vositalar	96
H.X.Bozorov	
O'zbek xalq ertaklaridagi obrazlar: lingvopoetik, badiiy va falsafiy tahlil	100

**“ONA LOCHIN VIDOSI” ROMANIDA KOLLIZIYA KONFLIKT****КОЛЛИЗИЯ И КОНФЛИКТ В РОМАНЕ «ПРОЩАНИЕ МАТЕРИ-СОКОЛИЦЫ»****COLLISION AND CONFLICT IN THE NOVEL “MOTHER FALCON’S FAREWELL”****Xaydarova Gullola** 

Farg'ona davlat universiteti, mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada tarixiy romandagi kolliziya konflikt ilmiy jihatdan asoslanib, tahlil etilgan. Kolliziya konflikt asosan “Ona lochin vidosi” romanidagi tarixiy shaxslar, malika va farzandning ruhiyati asosida tahlil etilgan.

Abstract

The article scientifically grounds and analyzes the collision conflict in the historical novel. The collision conflict is mainly analyzed based on the psyche of the historical characters, the queen, and the children in the novel “Ona lochin vidosi”.

Аннотация

В статье научно обоснован и проанализирован коллизийный конфликт в историческом романе. Коллизийный конфликт в основном рассмотрен на основе духовного мира исторических персонажей, царицы и детей в романе «Она лочин видоси».

Kalit soʻzlar: ruhiyat, kolliziya, tuygʻu, ichki konflikt, ruhiy konflikt, tarixiy obraz, toʻqima obraz.

Keywords: psyche, collision, emotion, internal conflict, psychological conflict, historical figure, composite character.

Ключевые слова: духовность, коллизия, чувство, внутренний конфликт, душевный конфликт, исторический образ, тканый образ.

KIRISH

Temuriylar saltanatining tarixida nom qoldirgan malikalardan biri “Ona lochin vidosi” romanidagi Gavharshod begimni Pirimqul Qodirov oʻzgacha bir rakursda tasvirlab beradi. Romanda mazkur obraz allaqanday johil, xudbin va manfaatparast malika sifatida emas, aksincha, oʻz farzandlarining noittifoqligidan choʻchiyotgan, saltanatning, avlodlarining kelajagidan xavotirga tushayotgan bir ona, “uyasidan ilon chiqqan” iztirob chekayotgan lochin sifatida namoyon boʻladi. Adib bu xarakter talqinida konfliktning barcha turlaridan unumli foydalanadi. Konfliktning turlari romanda nafaqat tarixiy shaxslarda, balki tarixiy shaxslar bilan parallel tarzda toʻqima obrazlar oʻrtasidagi ziddiyatlar ham tasvirlangan. Romanda kichik sarlavhalar orqali berilgan boblar nomlanishi ham ziddiyatlarni tahlil etishga turtki boʻladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Romanda ruhiy konflikt, yaʼni qahramon qalbidagi hissiyotlar, tushunchalarning ojiz va kuchli jihatlar orasidagi oʻzaro kurash talqiniga doir oʻrinlar ham mavjud. Jumladan, romaning **“Ruhii qiyonoqlar”** deb nomlangan bobida Husn Nigor xonimning xayolidan kechgan oʻylari tasviri bunga yorqin misol boʻla oladi.

Har qanday ona oʻz farzandining — u kim boʻlishidan qatʼi nazar — birovlar tomonidan laʼnatlanishini istamaydi. Albatta, Husn Nigor xonim ham oʻgʻlining qilgan ishlari, hech boʻlmasa qilich koʻtarib oʻz otasiga qarshi jang qilganini bilsa-da, bundan cheksiz iztirob chekayotgan boʻlsa-da, ona sifatida Abdulatifni qoralashlarini istamaydi. Oʻgʻlining qilmishlarini oqlaydigan sabablar qidiradi: irsiyatni qoralaydi. Chunki u — ona. Farzandining baxtsizliklari — uning baxtsizliklaridir.

Romanida xonimning ona sifatidagi ana shu iztiroblari ruhiy kechinmalar sifatida juda ishonarli ochib berilgan:

Xonim odamlarning “padarkush” degan soʻzlariga ishonmasa ham, lekin u tuqqan oʻgʻil otasiga qarshi qilich yalangʻochlab, jang maydonida uni yenggani va otani majburan hajga joʻnatgani uchun oʻzini allanechuk gunohkor sezardi. Balki bu shafqatsiz va haddan tashqari taxtparastlik Abdulatifga ona suti orqali oʻtgandir? Axir xonimning otasi Xalil Sulton ham xuddi shu yoshda bobosining vasiyatiga

ADABIYOTSHUNOSLIK

qarshi borib, Samarqand taxtini zo'ravonlik bilan egallamaganmidi?! Keyin Xalil Sulton o'zini tarbiyalab o'stirgan va suyuqlik xotini Shodimulki begimni naqd o'limlardan qutqarib qolgan Bibi xonimning Bobo Turmush tomonidan zaharlab o'ldirilishi sabab bo'lmaganmi?! Ulug'bek Mirzo bu voqealarni Husn Nigorkhonimga aytib bergandi: "Ehtiyot bo'ling, o'g'limiz Abdulatif bobosi Xalil Sultonga o'xshamasin!" - demaganmidi? Lekin irsiyat orqali kelgan va sut orqali o'tgan illat qarshisida Husn Nigor xonim nima qila olardi? Ulug'bek Mirzoday unutilmas siymo bilan birga o'tkazgan mas'ud damlarini eslaganda uning ko'zlariga yosh quyilib keldi. Qabrning sovuq marmariga yuzini qo'yib shivirlaydi: "Barcha gunohlarim uchun afv so'rayman, Parvardigor, meni farzand dog'idan asrasin!" — deb, ko'zda yosh bilan iltijo qiladi"[1].

Asar konfliktini talqin etishda yozuvchining dunyoqarashi ham muayyan darajada rol o'ynashi tabiiy, albatta. Husn Nigor xonim ruhiy kechinmalari asosiga qurilgan bu konflikt talqinida Ulug'bek fojiasining adib nazaridagi sabablaridan biriga ishora bor. Yozuvchining fikricha, Abdulatifni padarkushlikka olib borgan illatlardan biri unga bobolaridan irsiy meros sifatida o'tgan xudbinlik va taxtparastlik bo'lishi mumkin. Adib bu taxminiga romaning yana bir necha o'rinlarida qaytadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Muallif asarni yozar ekan, obrazlar psixikasini, ruhiy holatini ochib berishda portretidan mohirona foydalanadi. Portret fransuzcha-tasvirlamoq degani bo'lib, adabiyotshunos Dilmurod Qurinov aytganidek, "personajning so'z vositasida tasvirlangan tashqi ko'rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko'z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o'quvchi tasavvurida jonlanadigan to'laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri[2]" hisoblanadi.

Romanida ruhiy konflikt namunasiga Abdulatif holati tasvirida ham duch kelishimiz mumkin. Ayniqsa, bu borada Abdulatifning onasi Husn Nigor xonimga so'zlab bergan kechinmalari juda xarakterlidir:

"... Kechalari uyqum uchib ketadir. Quloqimga arvohlarning chirqirashi eshitilganday bo'ladir. Uxlasam tushimga otam kiradir. ...Ustida hojilarning oq ehromi. Menga o'qrayib qaraydir, ammo gapirmaydir. Keyin oq ehrom o'rniga kafan kiyib ustimga bostirib keladir. Qo'rqib uyg'onib ketamen".

Husn Nigor xonim o'g'lining bu ruhiy qiynoqlardan qoni qochgan so'lg'in yuziga qaradi-yu, yana onalik tuyg'usi ustun keldi:

— Xos hakimingiz bor edi-ku, bolam! Asabni tinchitadigan dorilardan bermadimi?

— E, dori kor qilmaydir. Gulobga af'yun qo'shib ichadigan bo'ldim. Bir necha soat qattiq uxlayman. Keyin shunday bo'shashib, aqlim zaiflashganga o'xshab bemador bo'lib uyg'onaman! Af'yun ta'sirida odamning ko'ziga har xil narsalar ko'rinadigan bo'lib qolar ekan. Bir marta tong yorishganda uyg'onam, xobgohimga qora kiygan barvasta ayol kirib keldi. Tikilib qarasam, momom Gavharshod begim! Ko'zlarini o'qday tikib menga qaraganda qo'rqib qichqirib yuborganman... Bilmadim, bu hodisa tushimda bo'ldimi, o'ngimdammi?.. Kun bo'yi jinim chiqib yurdim. Hozir ham eslasam yuragim taka-puka bo'ladi. Onajon, bu qiynoqlardan meni kim qutqargay?! Tushimga kesik kallalar kiradir. Bir marta o'zimning boshimni ham ko'rdim. Kimdir oltin barkashga kesilgan boshni solib, ustiga oq harir mato yopib ko'tarib kirdi. Ochib qarasam, o'zimning boshim!

XULOSA

Yuoqoridagi parcha padarkushlik la'natiga duchor bo'lgan Abdulatifning ruhiy qiynoqlari ochib berilgan. Abdulatifning bu kechinmalari zamirida o'z qilgan[1,112] ishidan ta'ssuf, o'zini oqlashga urinish tuyg'ularini ko'rish mumkin. Otaga qo'l ko'targan farzandning vijdon azobi tasviri bo'lib qolgan bu epizodda adibning Abdulatif xarakteriga munosabati yorqin ifodasini topgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018 y.
2. Qurinov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. Toshkent. Akadernashr. 2018.
3. Qurinov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. "Akadernashr", Toshkent. 2013. 226-bet.
4. Pirimqul Qodirov. "Ona lochin vidosi" roman. Toshkent.